

**O'ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHIDA ESKI SHAHARNING  
O'RNI**

Rahbar Professor  
Talipov M.A.  
Magistrant  
Azlarov A.A.  
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi, unda boy madaniy merosimizning o'rni hamda me'moriy yodgorliklardan turistik ob'yekt sifatida foydalanishga e'tibor qaratilgan. Turistik ob'yektlar orasida Toshkentning Eski Shahar mahallasiga chet elliqlar tomonidan bo'lgan katta e'tiborni hisobga olgan holda rekonstruksiya ishlarini olib borish zarurati ko'rsatib berilgan

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, turizm sohasi, milliy turizm, Eski shahar, rekonstruksiya, turistik ob'yekt, mahalla.

**Аннотация:** В данной статье, основное внимание уделяется развитию туризма в Узбекистане, месту нашего богатого культурного наследия и использованию памятников архитектуры в качестве туристических достопримечательностей. Учитывая большое внимание, уделяемое иностранцами Старому городу Ташкента среди туристических объектов, считается необходимым проведение реконструктивных работ.

**Ключевые слова:** Узбекистан, туристический сектор, национальный туризм, Старый город, реконструкция, туристический объект, махалля

**Annotation:** In this article, focuses on the development of tourism in Uzbekistan, the place of our rich cultural heritage and the use of architectural monuments as tourist attractions. Taking into account the great attention paid by foreigners to the Old Town neighborhood of Tashkent among the tourist facilities, the need for reconstruction work has been shown.

**Key words:** Uzbekistan, tourism, sector, national tourism, old city, reconstruction, tourist, object, neighborhood.

### KIRISH

O'zbekistonda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor Sobiq Ittifoq davrida boshlangan bo'lib, bu jarayon 1985-1989 yillarga to'g'ri keladi. Biroq bu sohadan kelgan daromad markaz tomonidan taqsimlanar edi. Bu davrda chet eldan kelgan sayyoohlar soni 160-180 kishidan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda ko'pgina davlatlarda turizm sohasiga katta e'tibor bilan qaraladi. Sababi, davlatning iqtisodiy rivojlanishi va o'sishida turizm muhim ro'l o'ynaydi. So'nggi yillarda ko'pgina davlatlarda ziyorat turizmini rivojlatirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda dunyo bo'ylab ziyorat turizmi ob'yektlarida joylashgan me'moriy obidalarni o'rganish va avaylab-asrash orqali ularga yanada ko'proq e'tiborni qaratish masalasida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bunday muqaddas qadamjolar Islom

ahli hayotida katta ro'l o'ynaydi. Asrlar davomida bizlarga meros bo'lib qolgan bu an'anaviy me'morchilikni saqlab qolish va shu qatorda ulardan unumli foydalanib, O'zbek milliy turizmi sohasining yanada rivojlanishimiz mumkin.

### ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasida 7 ming 300 dan ortiq tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ularning aksariyat qismi YUNESKO ro'yhatiga kiritilgan. 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach milliy turizm sohasi shakllana boshladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi keng rivojlanmoqda. Bunga sabab O'zbekistonda erkin siyosat va chet eldan keluvchi sayyoohlarga viza tizimining yengillashtirilgani, davlatimizning qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalarining mustahkamlanishi va o'zbek xalqining mehmondo'stligida deb bilamiz. 1992 yilda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil etildi. Bu kompaniya turizm sohasidagi barcha tashkiliy-boshqaruvi va muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshiradi. Chet elliq sayyoohlarni O'zbekistonning boy tarixiy merosi, muqaddas qadamjolari bilan tanishtirgan holda ularga sayohat qilishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Vaqt o'tgan sari sayyoohlar soni oshib bormoqda. Bu, albatta, O'zbekiston iqtisodiyoti va xalqning turmush tarzini ijobiy tomonga o'zgartirmoqda. 2023 yilda 7 millionga yaqin chet el fuqarosi O'zbekistonga turist sifatida tashrif buyurdi. Ularning mamlakatda qolish muddati o'rtacha to'rt kungacha uzaydi. Bu 2022 yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p demakdir. (1-rasm)



1-rasm

So'nggi yillarda O'zbekistonda zamonaviy shaharsozlik rivojlanib, yangicha uslubda ko'p qavatlari turar joy binolari va jamoat inshootlari qad ko'tarmoqda. Bu, o'z navbatida, Eski shahardagi asl o'zbek me'morchiligi saqlanib qolgan turar-joylar buzilib ketishi mumkinligiga olib kelmoqda. (2, 3 rasm)



2-rasm



3-rasm

Chuvalachi mahallasi manzarasi

Vaholanki bu o’zbek xalqining nafaqat milliy me’morchiligi, balki asrlar davomida avloddan avlodga o’tib kelgan madaniy merosimiz hisoblanadi. Boy tariximizni eslatuvchi omillarimizni saqlamasdan o’z qo’limiz bilan yo’qotshimiz bizgacha yetib kelgan tariximizga hurmatsizlik bo’ladi. “Tarixsiz kelajak yo’q” deganlaridek, o’zbek xalqi tarixini eslatuvchi omillarimizni avaylab-asrashimiz va undan unumli foydalanishimiz nafaqat mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun, balki xalq turmush darajasi o’sishi uchun ham foydali hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o’z nutqida quydagi fikrlarni bayon etgan edi: “Bugungi kunga kelib milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri milliy turizmdir, Shu bilan birga, mamlakatimizning o’ziga xos tabiat, go’zal dam olish hududlari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyoqlik yo’nalishlarini ochish mumkin”.

Prezidentimizning ushbu tashabbuslariga asoslanib, O’zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida chet el tajribalarini o’rganib, Ozarbayjon, Gretsya, Turkiya va boshqa davlatlarda o’z milliy qadriyatlarini ulug’lagan holda Eski shahar hududlarini saqlab, undan turizm sohasida foylanishga katta e’tibor berilganiga guvoh bo’ldik. Shundan ilhomlanib Toshkent shahridagi Eski shahar hududidan turistik ob’yekt sifatida foydalanishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ko’pgina rivojlangan mamlakatlarda ham turizm milliy iqtisodiyotning yetakchi sohasiga aylangan. Shu boisdan turizm sohasida Eski shahar hududining ahamiyati katta ekanligini takidlaymiz. Bu yo’nalishda O’zbekistonda yetaricha e’tibor qaratilmaganligi sababli Eski shaharga e’tiborni qaratish zarurati paydo bo’ldi.

Eski shahar Toshkentning shimoliy-g’arbidagi tarixiy qismi bo’lib, Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingunga qadar (1865 yilgacha) uning hududini tashkil qilgan. Eski shahar nomi Toshkentda yangi Shahar vujudga kelgandan so’ng ishlatiladigan bo’ldi.

Qorasaroy, Kaykavus va Chuvalachi mahallalarida joylashgan an’anaviy turar joylar, xalq tili bilan aytganda, ilon izi ko’chalar, hududda joylashgan choyxona, novvoyxona, masjid, madrasa va maqbaralarni uchratshimiz mumkin. Ulardan unumli foydalangan holda chet eldan tashrif buyurgan sayyoohlarga O’zbek xalqining an’anaviy turmush tarzi haqida ma’lumot beriladi. Hududda sayyoohlar uchun mehmon uylari ham ajratilgan. Sayyoohlar uy mehmon uylarda 3-4 kun yashab, Eski shahardagi muhitni his qilib, xalqning turmush tarzi qandayligi, turar joylarning qurilish konstruksiyasida qishda issiq, yozda salqin bo’lishi uchun paxsadan qurilishi haqida va hududning tor ko’chalarida daraxt ekish yoki yashil hududlar barpo etishning iloji yo’qligi sabab jazirama yoz faslida ko’chalarning mikroiqlimni taminlash uchun ilon izi shaklida bo’lib ko’chalarning yarimi salqin ekanligi haqida ko’proq tushuncha hosil qilishadi.



**4-rasm**



**5-rasm**

**Chuvalachi mahallasi ko'chaları.**

Sayyoohlar uchun shu hududda qiziqarli ekskursiyalar tashkil etilsa va ularning aynan ushbu hududda joylashgan mehmonxonalarda yoki hususiy xonadonlarda tunab qolishi uchun sharoit yaratilsa, tashrif buyuruvchilar xaqiqiy Eski shahar muhitini xis qiladilar.

Hududdagi aholi ushbu turistik ko'chalarda novvoyxona, choyxona, hunarmandchilik ustaxonasi ochib chet eldan kelgan sayyoohlarga sotish natijasida ularning daromadlarining ko'payishiga zamin yaratiladi va xalqning turmush tarzi yaxshilanadi.

**XULOSA**

Toshkentda so'nggi yillarda baland qavatli turar joy binolar qad ko'tarmoqda. Bu holat, o'z navbatida, Eski shahar hududidagi an'anaviy uylar buzilishi xavfini yuzaga chiqarmoqda. Bu tog'risida ko'plab mutasaddi hodimlar o'z takliflarini berishgan. Bu albatta asrlar davomida bizlarga meros bo'lib kelayotgan o'zbek milliy me'morchilik va an'anaviy turmush tarziga katta zarar hisoblanadi. Bu milliy qadriyatlar va tarixni o'z qo'llimiz bilan yo'qotmasligimiz zarur deb hisoblaymiz. O'zbek milliy an'analar va me'morchilikni ulug'lagan holda avaylab -asrab kelajak avlodga yetkazib bershimiz barchamizning burchimizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOT VA INTERNET MANBALAR:**

1. <https://www.Gazeta.uz>.
2. <https://www.Gazeta.uz>.
3. <https://www.Kun.uz>
4. <https://www.Lex.uz>
5. Toshkent Ensiklopediya. Toshkent; 1992 yil 406-bet